


ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2021- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 580,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 144,2 % ga ko'paydi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 13,4 % ni yoki 1 153,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7 426,6 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 86,6 % investitsiyalari o'zlashtirildi.



Markazlashgan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Respublika byudjeti

8,2 %

139,5 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

1,2 %

44,9 %

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

3,0 %

-

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar

1,1 %

23,7 %

Markazlashmagan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Korxona mablag'i

21,2 %

150,9 %

Aholi mablag'lari

21,0 %

141,7 %

Boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar

33,8 %

195,1 %

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz

10,5 %

105,5 %

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

9,5 %

224,5 %

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1 823,1 mlrd. so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,2 % ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,0 % i yoki 1 804,2 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 818,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 224,5 % ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m

Respublika byudjeti-700,4
mlrd.so‘m



Suv ta’minoti va kanalizatsiya
tizimlarini rivojlantirish
jamg‘armasi-101,2 mlrd. so‘m



Tiklanish va taraqqiyot
jamg‘armasi-256,6 mlrd. so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostida
xorijiy kreditlar-95,5 mlrd. so‘m



Korxona mablag‘lari-1 823,1
mlrd.so‘m



Aholi mablag‘lari-1 804,2
mlrd. so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy
investitsiyalar va kreditlar-
2 897,3 mlrd. so‘m



Tijorat bank kreditlari va
boshqa qarz mablag‘lari-902,0
mlrd. so‘m



Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 902,0 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,5 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 % tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 95,5 mlrd. so'm (1,1 % va 38,7 % punktiga kamaydi), boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar 2 897,3 mlrd. so'm (33,8 % va 122,9 % punktga ko'paydi), Respublika byudjeti 700,4 mlrd. so'm (8,2 % va 56,8 % punktga ko'paydi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi - 101,2 mlrd. so'm (1,2 % va 176,6 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalari o'zlashtirildi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd. so'm	o'sish sur'ati	viloyatidagi ulushi
Urganch shahar	1976,3 mlrd. so'm	110,7 %	23,0 %
Xiva shahar	593,1 mlrd. so'm	228,9 %	6,9 %
Bog'ot tumani	489,5 mlrd. so'm	105,0 %	5,7 %
Gurlan tumani	422,2 mlrd. so'm	121,8 %	4,9 %
Qo'shko'pir tumani	413,5 mlrd. so'm	127,4 %	4,8 %
Urganch tumani	485,0 mlrd. so'm	109,4 %	5,7 %
Hazorasp tumani	785,6	254,3 %	9,2 %
Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd. so'm	o'sish sur'ati	viloyatidagi ulushi

Tuproqqa'l'a tumani

343,6
mlrd. so'm

149,8 %

4,0 %

Xonqa tumani

675,3
mlrd. so'm

113,6 %

7,9 %

Xiva tumani

409,9
mlrd. so'm

197,0 %

4,8 %

Shovot tumani

435,7
mlrd. so'm

134,8 %

5,1 %

Yangiariq tumani

1151,8
mlrd. so'm

329,7 %

13,4 %


Yangibozor tumani

398,7
mlrd. so'm

129,0 %


4,6 %

2021- yil yanvar- dekabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Hazorasp tumani - 254,3 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 785,6 mlrd. so'm), Xiva shahrida - 228,9 % (593,1 mlrd. so'm), Yangiariq tumani - 329,7 % (1151,8 mlrd. so'm), Xiva tumani - 197,0 % (409,9 mlrd. so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga
o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo'yicha yuqori ulush quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahar 23,0 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1 976,3 mlrd. so'm), Yangiariq tumani 13,4 % (1151,8 mlrd. so'm), Hazorasp tumani 9,2 % (785,6 mlrd. so'm), Xonqa tumani 7,9 % (675,3 mlrd. so'm).

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy
kapitalga investitsiyalar**



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2021- yilning yanvar-dekabrida 4 495,4 ming so'm yoki 142,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib 13 554,9 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil etdi. Yangiariq tumanida 9761,4 ming so'm (yoki 325,2 %) va Xiva shahrida 6 289,5 ming so'm (yoki 225,3 %) darajada qayd etildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,(% da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 46,5%, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 48,7%, boshqa xarajatlarning ulushi 4,8% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1 565,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 18,2%, ishlab chiqarish sanoati – 1 405,7 mlrd. so'm (yoki 16,4%), qurilish - 355,1 mlrd. so'm (yoki 4,1%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 377,5 mlrd. so'm (yoki 4,4%), ta'lim - 218,9 mlrd. so'm (yoki 2,6%), uy-joy qurilishi - 1175,3 mlrd. so'm (yoki 13,7%) va boshqa faoliyat turlari – 2 990,4 mlrd. so'm (yoki 34,8%).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 992,8 mlrd. so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 282,9 mln. AQSh doll.), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 158,6 % tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiyligi tarkibida xorijiy investitsiyalar 818,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, shuningdek, 2133,2 mlrd. so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiyligi hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 818,4 mlrd. so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 95,5 mlrd. so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 2 078,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumaniga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 29,6 % ni ta'minladi, Xiva shahrida -9,5 %, Urganch shahrida - 8,0 % darajada kuzatildi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorijiy investitsiya va kreditlar


	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mld. so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan % da.</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
Xorazm viloyati	2 992,8	2133,2	100,0	34,9

shahar va tumanlar:

Urganch sh.	240,0	175,6	8,0	12,1
Xiva sh.	284,0	266,5	9,5	47,9
Bog'ot	174,9	174,9	5,8	35,7
Gurlan	162,9	162,9	5,4	38,6
Qo'shko'pir	147,8	131,8	4,9	35,7
Urganch	135,0	116,1	4,5	27,8
Hazorasp	160,8	97,8	5,4	20,5
Tuproqqa'l'a	146,9	146,9	4,9	42,8
Xonqa	193,6	193,6	6,5	28,7
Xiva	138,0	125,2	4,6	33,7
Shovot	180,8	148,3	6,0	41,5
Yangiariq	887,2	271,8	29,6	77,0
Yangibozor	141,0	121,7	4,7	35,4

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 34,9 % ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,1 % yoki 95,5 mlrd. so'm, 98,9 % yoki 2897,3 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 818,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Sh.Babajonov
Telefon: (62) 224-65-22.**